

## DAVLAT RO‘YXATIDAN KUCHMAS MULK OBEKTLARINI O‘TKAZISH TIZIMINING MAZMUNI

**Bozorov Malik Maxmudovich**

QarMII “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish”  
kafedrasи o‘qituvchisi

**Egamberdiyev Rashidbek To‘raboy o‘g‘li**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kuchmas mulk obektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimining mazmuni, tahlil qilishda turli xil usullar yordamida monitoring qilish va xatlov nazoratini kuchaytirish maqsadida zamonaviy usullardan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar.** Kuchmas mulk obektlari, yer, kadastr planlari, chizmalar va sxemalar.

**Abstract.** This article provides information on the content of the system of state registration of immovable property objects, monitoring using various methods in analysis and the use of modern methods in order to strengthen traffic control.

**Keywords:** Real estate objects, land, cadastral plans, drawings and schemes.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi PQ-4270-son “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish sohasidagi davlat xizmatlari sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, ushbu sohadagi davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish ularning tezkorligi va foydalanish imkoniyatlarini oshirishni, davlat organlari faoliyatining shaffofligiga erishishni va xizmatlardan foydalanuvchilarga axborot xizmati ko‘rsatishni yaxshilashni taqozo etmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish, tegishli tizimlarni davlat organlarining elektron ma’lumotlar bazalariga integratsiya qilish ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonini soddalashtirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

2020-yil 1-yanvardan boshlab ko‘chmas mulk obyektini “E-IJRO AUKSION” Yagona elektron savdo maydonchasida auksion orqali sotish (davlat aktivlari qismida) va rietorlik xizmatlari ko‘rsatish natijasida vujudga keladigan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar tegishlicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va rietorlik tashkilotlari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshiruvchi organlarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yuborilishi belgilab berildi.

Kadastr ma’lumotlarining ko‘p mazmunli va maqsadliligi unda alohida kichik tizimlarni ajratish zaruriyatini aniqlagani holda tizimning tarkibini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Kichik tizimlarni ajratish prinspining asosiga obyektlar va voqeliklar to‘g‘risida bir xil ma’lumotlarni tartibga keltirgan shahar kadastrining tarkibi qo‘yilishi mumkin. Ammo kadastrning tarkibida qilingani singari, ajratish yetarli shartdir, negaki turli obyektlar uchun ma’lumotlarni to‘plash va qayta ishlash usullari bir xil bo‘lishi mumkin. (Masalan, topografik ma’lumotlar barcha obyektlar va voqeliklar uchun bir xil usullarda to‘planadi va qayta ishlanadi, malumotlarni to‘plash uchun bir xil aero va foto apparaturalardan; teodolitlardan foydalaniladi; malumotlarni qayta ishlash uchun bir xil EHM va hokazo) Shunga o‘xhash faktlarni boshqa

jarayonlarga nisbatan ham kuzatish mumkin, masalan, malumotlarni saqlashni bir xil tipdagi EHMda amalga oshirish mumkin.

Kuchmas mulk obektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni kadastr jihatdan ta'minlash sifatida qaraladigan shahar muhitining obyektlari va voqeliklari to'g'risidagi kadastr axborotlariga tashkilotlar va shaharni boshqarish organlari so'rovlari tezkor, to'la va sifatli qondirishga mo'ljallangan.

Yagona tashkiliy huquqiy va meyoriy texnologik asosda tashkil etiladigan shahar kadastr ta'minoti tabiat shahar kadastri tizimi bilan amalga oshiriladi.

Aholi yashash joylari kadastrini yaratish va yuritish konsepsyasiga muvofiq, kadastr ma'lumotlari shaharning hududiy-loyihaviy tarkibini (shaharlar, tumanlar, seksyalar nomlari, chegaralari, kodlari, ko'chalarining bo'laklari, maydonlar va chorrahalar, obyektlarning joyiashgan o'rni) xarakterlaydigan umumiy hamda obyektlar va voqeliklar bo'yicha quyidagi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarga bo'linadi:

❖ shahar yerlari — kadastr uchastkalarining o'lchamlari va maydonlari, yerdan foydalanuvchilar, yer turlarining tavsiflari, sifat va iqtisodiy baholash to'g'risidagi ma'lumotlar;

❖ suv kengliklari - suv kengliklarining nomi, o'lchamlari, tavsiflari hamda gidrotexnik inshootlarning texnik tavsiflari;

❖ tuproqlar - jinslarning geologik - tarkibli va metologik tavsiflari, yoshi, genezisi, relefning morfologiyasi, yer osti suvlarining tavsifi, gruntlar xususiyatlarining hisob ko'rsatgichlari;

❖ yashil daraxtzorlar - turlari, soni, navlari, yoshi, o'lchamlari, holatlari va boshqa tavsiflari;

❖ bino va inshootlar - turlari (manzili ko'rsatilgan holda) nomi, yili, sinfi, shakllari, bino taglari, qavatlilik, fondning egalari foydalanuvchi tashkilot;

❖ injenerli kommunikatsiyalar - yer osti va yer usti inshootlari, mohiyati, turi, yili, texnik tavsifi, quvvat ko'rsatkichlari, hududlardan foydalanish;

- ❖ ko‘chalar va yo‘llar - o‘lchamlari, konstruksiyasi, texnik tavsiflari. toifasi, nishabligi, profili, xarajatning intensivligi, yo‘l inshootlari;
- ❖ tibbiyot — sog‘liqni saqlash obektlarining tavsiflari (poliklinikalar, kasalxonalar, dispanserlar, tez yordam stansiyalari va boshqalar);
- ❖ ekologiya - ifloslash manbalari, ularning turlari, tavsifi, shovqinlik darajasi, shahar hududining zaharli gazlar bilan buzilganganligi.

Aholi yashash joylari kadastrining materiallarini kadastr ma’lumotlarini yoritish usullari bo‘yicha bo‘lish ancha maqsadga muvofiqdir. Bunda ma’lumotlarni yoritishning qat’iy usullari natijasida olingan materiallar plan-xaritalar sifatida, barcha qolganlari - hujjat sifatida aniqlanadi. Aholi yashash joylari kadastrining plan-xarita materiallari kadastr planlari, chizmalar, sxemalar ko‘rinishida, hujjatlari esa grafiklar, jadvallar, ro‘yxatlar, reyestrlar ko‘rinishida bo‘ladi. Plan-xarita materiallarining mazmuni obekt yoki voqelikning xususiyatlarini yorituvchi kadastr ma’lumotlarining elementlari, chizmalar va sxemalarning to‘plami bilan aniqlanadi.

Materiallar va hujjatlar xarakterini belgilash uchun quyidagi klassifikatsiya qabul qilingan: yetib kelish manbalari bo‘yicha - axborotlar loyihami, loyiha qidiru, ma’muriy-boshqaruv, foydalanuvchi, qurilish, sanoat, transport, kommunal va boshqa tashkilotlar;

taqdim etish shakllari bo‘yicha – grafik, matn, alfavitli-sonli;  
so‘rov murakkabligi bo‘yicha - oddiy, murakkab, noyob, ommaviy;  
berish turlari bo‘yicha – haqiqiy, dublikat, dusha, kopirka qilingan ko‘chirma;  
rejimli darajasi bo‘yicha - umuiniy foydalanadigan, xizmat yuzasidan foydalaniladigan, maxfiy rejimli.

Xulosa qilib aytganda, aholi yashash joylari kadastrining materiallari va hujjatlaming aniqligi ko‘pgina mezonlar bilan aniqlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алиқулов, F., & Аралов, М. (2022). РЕЛЬЕФНИНГ РАҚАМЛИ МОДЕЛЛАРИНИ УЧУВЧИСИЗ УЧИШ АППАРАТЛАРИ ЁРДАМИДА ЯРАТИШ. *Innovatsion Texnologiyalar*, 1(4), 131–134. Retrieved from <https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/127>
2. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA'LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>
3. Aralov , M. M., & Qilichev , Z. M. (2023). TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 674–679. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/1100>
4. Ibragimov Utkir Nurmamat o'g'li, and Aralov Muzaffar Muxammadiyevich. 2022. "Topografik kartalar yaratishning asosiy usullari". arxitektura, muhandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali 1(4):31-33. <https://www.sciencebox.uz/index.php/arxitektura/article/view/4913>.
5. Nortoshov, A. G., Aralov, M. M., & Aliqulov, G. N. (2023). QISHLOQ XO'JALIGI XARITALARINI YANGILASHDA MASOFADAN ZONDLASH MATERIALLARIDAN FOYDALANISH. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(3), 49–56. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/2669>
6. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Анализ точности геодезических пунктов топографических карт вблизи промышленных объектов // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 2(83).
7. Мирмахмудов Э.Р., Ниязов В.Р., Аралов М.М. Проектирование геодезической сети сгущения в окрестности промышленных объектов // Вестник науки. Научный журнал. №5-1(7), С. 212-220.

8. Э.Р.Мирмахмудов, Э.Эгамбердиев, М.М.Аралов. Рекогносцировка пунктов геодезической сети в окрестности г. Карши. Современная наука в условиях модернизационных процессов: проблемы, реалии, перспективы. 2021. 261-267.
9. Aralov , M. M., & Oripov U.O. (2022). Yer monitoringini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish usullari. INTERNATIONAL CONFERENCE ON , 2022 - [researchedu.org](https://researchedu.org)
10. M.M Aralov, T.Y Bobonazarov. Dehqon xo‘jaliklarini kadastr ma’lumotlari bazasini takomillashtirish - CONFERENCE ON LEARNING , 2022 - [researchedu.org](https://researchedu.org)
11. Aralov, M. M. (2022). MUHANDISLAR TAYYORLASH TA’LIMINING MUAMMOLARI VA YUTUQLARI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 107–111. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2630>
12. ММ Арало, ШМ Гулов, ДД Шоғдаров.(2022). Замонавий Геодезик Асбоблардан Фойдаланиб Топографик Съёмка Ишларини Бажариш. (2022): Барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали, 1(2), 84-87. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/751>
13. Аликулов, F., & Аралов, М. (2021). GNSS ДАН ФОЙДАЛАНИБ ҚАРШИ ШАҲАР ХУДУДИ ГЕОДЕЗИК ТАРМОГИ КООРДИНАТАЛАРИНИ ЎЛЧАШ. Innovatsion Texnologiyalar, 2(42), 25-28. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=p\\_TkgnA AAAAJ&sortby=pubdate&citation\\_for\\_view=p\\_TkgnAAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=p_TkgnA AAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=p_TkgnAAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)
14. M.M Aralov, T.Y Z.A.Toshpo‘latova. (2022). DEHQON XO‘JALIKLARINI KADASTR MA’LUMOTLARI BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4),219–222. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=p\\_TkgnA AAAAJ&citation\\_for\\_view=p\\_TkgnAAAAAJ:iH-uZ7U-co4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=p_TkgnA AAAAJ&citation_for_view=p_TkgnAAAAAJ:iH-uZ7U-co4C)